IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA FRONT VA FRONT ORTI VOQEALARINI YORITISHDA GAZETALARDA QO‘LLANILGAN JANRLAR VA ULARNING FUNKSIYALARI

Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna,
Xorazm Ma’mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
jumanazarovafiruza8485@gmail.com.
http://orcid.org/0009-0009-4929-3143

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19684419

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyati tuman gazetalarida qo‘llanilgan janrlar tizimin aniqlangan va ularning ijtimoiy-funksional vazifalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida gazetalardagi asosiy janrlar tasniflangan, ularning mazmun xususiyatlari ochib berilgan hamda urush sharoitida bajargan funksiyalari ilmiy asosda yoritilgan.*
Kalit so‘zlar: *davriy matbuot, “Kolxozchilar ovozi”, “Lenin yo‘li”, “Shovot haqiqati”, reportaj, fotoreportaj, xabar, maqola, ocherk, gazeta.*

Аннотация. *В данной статье определена система жанров, использованных в районных газетах Хорезмской области в годы Второй мировой войны, а также проанализированы их социально-функциональные особенности. В ходе исследования были классифицированы основные жанры газетных материалов, раскрыты их содержательные характеристики и научно обоснованы функции, выполняемые ими в условиях военного времени.*
Ключевые слова: *периодическая печать, «Kolxozchilar ovozi», «Lenin yo‘li», «Shovot haqiqati», репортаж, фоторепортаж, новость, статья, очерк, газета.*

Abstract. *This article identifies the system of genres used in district newspapers of the Khorezm region during World War II and analyzes their socio-functional roles. The study classifies the main journalistic genres found in newspapers, reveals their content characteristics, and provides a scientific interpretation of the functions they performed under wartime conditions.*
Keywords*: periodical press, “Kolxozchilar ovozi”, “Lenin yo‘li”, “Shovot haqiqati”, reportage, photo reportage, news, article, essay, newspaper.*

Kirish. Ikkinchi jahon urushi davri insoniyat tarixidagi eng murakkab davrlardan biri bo‘lib, bu davrda matbuot tizimi ham tubdan o‘zgartirildi. Urush sharoitida matbuot nafaqat axborot tarqatish vositasi sifatida, balki aholini safarbar etish, g‘oyaviy-siyosiy targ‘ibotni amalga oshirish va jamoatchilik fikrini shakllantirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ldi.

Mazkur jarayonda mahalliy matbuot organlari, jumladan, tuman gazeta-lari alohida ahamiyat kasb etdi. Ular markaziy nashrlardan farqli ravishda aholining kundalik hayoti, mehnat faoliyati va ijtimoiy kayfiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan axborotlarni yoritib bordi. Xususan, Xorazm viloyatida nashr etilgan tuman gazetalari urush yillarida front ortidagi mehnatni tashkil etish, aholini harbiy va iqtisodiy

vazifalarni bajarishga safarbar qilish, shuningdek, mahalliy qahramonlar obrazini yaratish orqali targ‘ibot ishlarini kuchaytirishda muhim o‘rin tutdi.

Shu bilan birga, urush davri matbuotining samaradorligi ko‘p jihatdan unda qo‘llanilgan jurnalistik janrlar tizimi va ularning funksional vazifalariga bog‘liq edi. Gazetalardagi axborot, tahliliy va badiiy-publitsistik janrlar nafaqat ma’lumot berish, balki muayyan g‘oyalarni singdirish, aholini ruhlantirish va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qildi. Ayniqsa, tuman gazetalarida janrlarning tanlanishi va ularning mazmun jihatdan boyitilishi urush sharoitidagi ijtimoiy-siyosiy talablar bilan bevosita bog‘liq edi.

Adabiyotlar tahlili. Mavjud ilmiy adabiyotlarda urush yillaridagi matbuot faoliyati keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning birontasida ham Xorazm viloyati tumanlarida chop qilingan gazetalari va ulardagi janrlar tizimi va ularning funksiyalari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha tahlil qilinmagan. Bu esa mazkur mavzuni ilmiy jihatdan o‘rganish zaruratini belgilaydi. Shundan kelib chiqib, tumanda chop qilingan “Kolxozchilar ovozi”, “Lenin yo‘li”, “Shovot haqiqati” gazetalarining 1942 yildagi sonlari ruknida berilgan maqolalar manbaviy asos sifatida olindi.

Metodlar. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyati tuman gazetalarida janrlar tizimi va uning funksiyalarini yoritishda gazetalar ruknlarida keltirilgan maqolalar tarixiy-qiyosiy tahlil metoddan foydalangan holda o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Ikkinchi jahon urushi yillarida mahalliy matbuotning o‘rni va ahamiyati katta bo‘lgan. Ular aholini front va front orti ishlariga safarbar qilishda, odamlarni ma’naviy-ruhiy xolatini mustahkamlash, davlat siyosati targ‘ibotini ta’minlashda muhim o‘rin tutgan. Urush yillarida davriy matbuotning janrlar tizimi axborot berish, tag‘ibot qilish va ijtimoiy ongni shakllantirish vazifalariga mos ravishda shakllangan. Ikkinchi jahon urushi davrida Xorazm viloyatining barcha tumanlarida gazetalar chop qilingan bo‘lib, ularning barchasida deyardi bir xil turdagi janr - axborot (informatsion) janri, tahliliy janrlar va badiiy-publitsistik janrlar qo‘llanilgan. Axborot janriga xabar, reportaj, hisobotlar kirib ular asosan gazetalarning birinchi betida berilgan. Tahliliy janrga esa maqola, sharh, tahlil kirgan. Badiiy-publitsistik janrga esa ocherk, feleton, she’r, xatlar, shiorlar kirgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyati tumanlarida chop qilingan uchta – “Kolxozchilar ovozi”, “Lenin yo‘li”, “Shovot haqiqati” gazetalarining 1942 yil yanvar va may oylardagi sonlari tahlil qilindi[1]. Tahlil natijalariga ko‘ra, “Kolxozchilar ovozi” gazetasi yanvar va may oylarida 8 ta soni chiqqan. Gazeta asosan xaftaning chorshanba va shanba kunlari, ayrim paytlarda dushanba va seshanba kunlari ham chop qilingan. “Lenin yo‘li” gazetasi esa 1942 yilning yanvar

oyida 8 marotaba, may oyida esa 9 marotaba chiqarilgan. Gazeta dushanbadan tashqari xaftaning barcha kunlari chiqarilgan.. “Shovot haqiqati” gazetasi esa 1942 yilning yanvar va may oylarida 8 marotaba chiqqan. Bu gazetada ham xaftaning ma’lum kunida chop qilinmagan. Tuman gazetalarining chop qilingan kuni va sanasi o‘rganilganda ularni ma’lum bir kunda chop qilinmaganligini guvohi bo‘ldik. Bunga nashriyotlardagi tig‘izlik sabab bo‘lgan. Chunki urush tufayli shu davrlarda viloyatning hamma tumanlarida nashriyotlar ish faoliyatini olib bormagan. Masalan, Gurlan tumani gazetasi “Kolxozchilar ovozi” Urganch shahridagi bosmaxonada urushgacha bo‘lgan davrda bir varaq hajmida 500 nasxada chop qilingan. 1939 yil 1 yanvarigacha gazetaning 72 soni chop qilingan bo‘lsa, 1942 yilgacha 877 soni chiqqan[2].

Ikkinchi jahon urushi yillarida tumanlarda chop qilingan gazetalardan Gurlan tumanidagi “Kolxozchilar ovozi” gazetasini 1942 yil 6 yanvardagi №1 (878)soni “Ikki milionli kolxoz” deb nomlangan qisqa xabar bilan boshlanadi. Unda Cho‘balanchi qishloq sovetidagi “Madaniyat” kolxozi 1940 yilda 1 million 58 ming 142 so‘m daromad qilgani bo‘lsa, 1941 yilda 2 million so‘m daromad qildi, bu sotsialistik mehnatning g‘alabasidir degan ma’lumot keltiriladi[3]. 1-betda yana Sovet informatsiya byurosining 1942 yil 4 yanvardagi Rasmiy axboroti reportaj janrida berilib, axborotda nems fashistlarni egallagan hududlari to‘g‘risida qisqa ma’lumotlar keltirilgan. Gazetaning shu betida yana “Kolxozlarda daromad taqsimotini muvaffaqiyatli o‘tkazaylik” deb nomlangan sarlavha ostida taxliliy maqola va “Yangi yil kuni zo‘r tantana bilan o‘tdi” nomli qisqa xabar berilgan.

Gazetaning 2-betida esa aholini havo xujumi va ximiyaviy mudofaaga tayyorlash uchun guruhlarni tuzish, o‘qitish ishlarini olib borish to‘g‘risida ma’lumot berilgan axborot keltirilgan. Shuningdek, o‘sha betda bitta feleton, ikkita qisqa xabar va bitta tahliliy maqola berilgan. Bundan ko‘rinadiki tuman gazetalarida asosan axborot, tahlil va badiiy-publitsistik janrlar qo‘llanilgan[3].

Tuman gazetalarining viloyat gazetalaridan farqli tomoni ko‘p bo‘lgan. Viloyat gazetalari hajmi jihatidan olib qaralganda ham katta bo‘lib, 4 betdan iborat bo‘lgan va o‘zida juda ko‘p ma’lumotlarni yoritib bergan. Xorazm viloyatida uchta viloyat gazetasi bo‘lib, ularda frontdan reportaj, hukumat qaror va qonunlari va fan, ta’lim, san’at, qishloq xo‘jaligi, sanoat sohalaridagi ishlar qisqa axborot shaklidagi materiallar orqali yoritib borilgan[4]. Tuman gazetalari esa 1942 yildan boshlab 2 betdan iborat holda chop qilingan. Ungacha bo‘lgan davrda 4 betdan iborat holda chop qilingan. Buni ustiga gazetaning yarmida rasmiy axborotlar keltirilgan. Shuningdek, tuman gazetalarida asosan axborot janri bilan birga publitsistik janrdagi materiallar berilgan. Axborot janridagi xabar, ma’lumot, frontdan

xabarlar(reportaj)ning asosiy vazifasi xalqni tezkor va ishonchli ma’lumot bilan ta’minlash hamda front va front ortidagi aloqani bog‘lash, davlat va harbiy organlar faoliyatini yotirishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, publitsistik janridagi marojaat, chaqiriq va shiorlar aholini mehnat va harbiy safarbarlikka jalb qilish, ijtimoiy faollikni oishirish, jamoaviy harakatni rag‘batlantirish kabi vazifalarni bajargan. Demak, tuman gazetalari sahifalarida berilgan har bir material ikkinchi jahon urushi davrida aholini birdamligini ta’minlash, ularni jisplashtirib mehnat qilishga undashi, vatanparvarlik va fidoiylik tuyg‘ularini kuchaytirishga, g‘alaba sari dadil qadam tashlashga undagan.

Yangiariq tumanida chop qilingan “Lenin yo‘li” gazetasi ham ikki betdan iborat holda chop qilingan. Gazetaning birinchi betida faqat axborot janridagi xabarlar berilgan. Shuningdek, ikkinchi betda ikkita reportaj janrida va badiiy-publitsistik janrda uchta she’r - Qurbon ota Ismoilovning “Yangi yil”, “Qaltirap o‘lmoqdalar” hamda J. Sattorning “A’lochi qiz” she’rlari hamda “Ko‘klamga tayyorgarlik qizitilmoqda”, “O‘quvchilar vatanparvarligi” nomli publitsistik janrdagi maqolalar berilgan[5].

Shuningdek, “Lenin yo‘li” gazetasining 1942 yil 1 may soni ham qisqa xabar bilan boshlangan. Gazetaning ushbu betida 2 ta fotoreportaj va bitta axborot janridagi maqolalar keltirilgan bo‘lsa, 2 betda sovet informatsion byurosidan reportaj, Nishon Nazariy nomli shoirning “Keldi may bayramingiz” va Shuhrat Raxmonning “Eson bo‘ling” sha’rlari keltirilgan. Ikkinchi betning pastki qismida ikkita qisqa xabar berilgan[6].

Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘z faoliyatini olib borgan gazetalar-dan biri Shovot tumanida chop qilingan “Shovot haqiqati” gazetasi bo‘lib, gazeta 2 betdan iborat bo‘lgan. Urush yillarida gazeta sahifalarida boshqa tuman gazetalaridagi kabi axborot, tahliliy va publitsistik janrlardagi maqolalar chop qilingan. Masalan, “Shovot haqiqati” gazetasining 1942 yil 7 yanvardagi №1 soni tahlil qilinganda gazetaning reportaj va axborot janri qo‘llanilgan. Gazetaning ikkinchi betida ham bitta reportaj va publitsistik janrdagi tanqidiy maqola keltirilgan. Shuningdek, gazetaning 2-betining pastki qismida qisqa e’lon ham berilgan[7].

“Shovot haqiqati” gazetasining 1942 yil 1 maydagi №33 soni tahlil qilinganda, gazetaning birinchi betida g‘alaba sari chorlovchi shiorlar, sovet informatsion byurosidan reportaj, publitsistik janrdagi aholini mehnatga undash uchun bitta da’vat va “Xorazm viloyatidagi muassasa va tashkilotlarda ish vaqtini boshlanishi va tugallanishi to‘g‘risida Mehnatkashlar deputatlari Xorazm viloyati ijroiya kengashining Qarori” keltirilgan. Gazetaning 2-betida esa badiiy-publitsistik janrdagi 7 ta material keltirilgan[8].

Xulosa. Ikkinchi jahon urushi yillarida gazetalar jamiyat hayotida nihoyatda muhim axborot va targ‘ibot vositasi sifatida xizmat qildi. Front va front ortidagi voqealarni yoritishda turli xil janrlar — reportaj, xabar, ocherk, maqola, murojaat va shiorlar keng qo‘llanildi. Bu janrlar orqali nafaqat voqealar tezkor va aniq yetkazildi, balki aholi va askarlarni ruhlantirish, vatanparvarlik hissini kuchaytirish, mehnat va jangga safarbar etish vazifalari ham bajarildi.

Ayniqsa, reportaj va xabar janrlari frontdagi vaziyatni jonli va ishonchli tasvirlashga xizmat qilgan bo‘lsa, ocherk va maqolalar orqali voqealar tahlil qilinib, qahramonlik va fidoiylik namunalari keng yoritildi. Murojaat va shiorlar esa ommani birlashtirish, ularni g‘alaba sari chorlashda muhim targ‘ibot vositasi bo‘ldi. Shuningdek, urush yillarida gazetalarda qo‘llanilgan janrlar nafaqat axborot berish, balki kuchli ma’naviy-siyosiy ta’sir o‘tkazish, jamiyatni bir maqsad yo‘lida jipslashtirish kabi muhim vazifalarni bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumaniyazova F. 1941-1945-yillarda madaniyat sohalari faoliyatiga tegishli masalalarning davriy nashrlarda yoritilishi // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2025/11/3. – B. 35.
2. Jumaniyazova F. Xorazm viloyati tumanlarida nashr qilingan gazetalar faoliyati // Tamaddun nuri // The light of civilization ISSN 2181-8258 IF-9.347DOI10.69691. 2025-yil 5-son (68) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. – B. 365.
3. Kolxozchilar ovozi gazetasi. 1942 yil 6 yanvar. №1(878). 1-bet.
4. Jumaniyazova F. Xorazm viloyati davriy matbuoti faoliyati va targ‘ibot yo‘nalishlari // Innovatsiya va taraqqiyot. 2025. №7. – B.24.
5. Lenin yo‘li gazetasi. 1942 yil 4-yanvar. №1(606).1-2-bet.
6. Lenin yo‘li gazetasi. 1942 yil 1 may. №32(637). 1-2-bet.
7. Shovot haqiqati gazetasi. 1942 yil 7 yanvar. №1 (650). 1-2 bet.
8. Shovot haqiqati gazetasi. 1942 yil 1 may. №33 (682). 1-2 bet.